

## TALABALARNI INKLIZIV TA`LIM MUHITIGA TAYYORLASHNING METODIK TA`LIMOMTINI TAKOMILLASHTIRISH METODIKASI

**Shoyimova Farangiz Mustafo qizi**

Qarshi DU Boshlang`ich ta`lim yo`nalishi 2-bosqich talabasi.

**O.P.Aslanova**

Rahbar.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.1419389>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada inklyuziv ta`lim uning maqsadi va shu yuzasidan kiritilgan qonunlar haqida ma`lumotlar kiritib o`tilgan. Maqolada inklyuziv ta`limga muhtoj o`quvchilar uchun chet davlatlarida olib borilayotgan chora tadbirlar haqida ma`lumotlar kiritilgan.

**Tayanch so`zlar:** Inklyuziv, inklyuziv maktab, Nogiron shaxslar xuquqlari to`g`risidagi Deklaratsiya, nogiron shaxslar huquqlari, Amirikada inklyuziv maktablar.

## METHODOLOGY FOR IMPROVING THE METHODICAL TEACHING OF PREPARING STUDENTS FOR THE INCLUSIVE EDUCATIONAL ENVIRONMENT

**Abstract.** This article contains information about the goals of inclusive education and the laws adopted in this regard. The article provides information about the measures taken in foreign countries for students who need inclusive education.

**Key words:** Inclusive, inclusive school, Declaration of the Rights of Persons with Disabilities, rights of persons with disabilities, inclusive schools in America.

## МЕТОДОЛОГИЯ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ МЕТОДИЧЕСКОГО ПРЕПОДАВАНИЯ ПОДГОТОВКИ ОБУЧАЮЩИХСЯ К ИНКЛЮЗИВНОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СРЕДЕ

**Аннотация.** В данной статье содержится информация о целях инклюзивного образования и принятых в этой связи законах. В статье приведены сведения о мерах, принимаемых в зарубежных странах для учащихся, нуждающихся в инклюзивном образовании.

**Основные слова.** Инклюзивная, инклюзивная школа, Декларация о правах инвалидов, права инвалидов, инклюзивные школы в Америке.

Inklyuziv ta`lim-imkoniyati cheklangan yoki etiborga muhtoj bo`lgan bolalar uchun ularga sog`lom bolalar bilan birgalikda o`qishlari uchun teng huquqlilik va teng imkoniyatlar beruvchi ta`lim tizimidir. Inklyuziv ta`lim inglizcha so`z bo`lib, “inclusive” - qo`shish, birlashtirish degan ma`nolarni anglatadi.

Inklyuziv ta'limning maqsadi - imkoniyati cheklangan o'quvchilar uchun maktablarda maxsus vosita va metodlardan foydalanib o'quvchilarni jamiyatga moslashuvchi va to'laqonli uyg'unlashuviga xizmat qiluvchi ta'lim dasturi. Inklyuziv ta'lim o'z mohiyatiga ko'ra barcha o'quvchilarga teng imkoniyat beradigan ta'lim sifatida normativ-xuquqiy xujjalarda o'z ifodasini topadi.

1992-yil 14-oktabrda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 47/3-soni qaroriga asosan 3-dekabr Xalqaro nogironlar kuni deb e'lon qilindi. Ushbu sana dunyo bo'y lab keng miqyosda nishonlanadi. Yurtimizda ushbu sana nogironlar kuni sifatida nishonlanadi. Hozirgi kunda yurtimizda imkoniyati cheklangan shaxslar uchun keng imkoniyatlar yaratilmoqda.

1997-yil nogiron shaxslar huquqlarini yanada mustahkamlash maqsadida Birlasgan Millatlar Tashkiloti tomonidan "Nogiron shaxslar xuquqlari to'g'risida" gi Deklaratsiya qabul qilindi. Unda "Nogiron shaxsiyatini xurmat qilish huquqi ularda tug'ulishi bilan mavjud bo'ladi.

Ularning kelib chiqishi, tabiatи va jiddiylik darajasidan qat'iy nazar, fuqaro o'z yoshidagi tengdoshlari bilan bir xil xuquqlarga egadirlar vas hu bilan birgalikda ular mumkun qadar to'laqonli yaxshi hayot kechirish huquqiga ham ega".

"Nogiron shaxslar huquqlari to'g'risida" gi Deklaratsiyadan shuni tushunish mumkunki, nogiron shaxslar jamiyat hayotida to'liq ishtirok etishlari mumkin va bu kafolatlanadi.

Har bir inson mehr olish, e'tiborda bo'lish, ximoyalanish, shaxsiy faoliyati davomida kimdandir ruhiy, manaviy ruhlantirish kabi ehtiyojlarga muhtojdir. Imkoniyati cheklangan insonlar ham bundan mustasino emas, ular ham shu kabi narsalarmi istaydi. Shu jumladan ularda yana ularning alohida shaxsiy ehtiyojlari ham mavjuddir. Alohida ehtiyojga muhtoj bolalar ham o'z tengdoshlari kabi o'qishga, bilim olishga, o'z qobiliyatlarini rivojlantirishga va kasb hunar o'r ganishga haqlidirlar. Inklyuziv ta'lim maqsadga muvofiq ravishda tashkil etilsa yordamga muhtoj bolalar ijtimoiy tomondan himoyalanadi va o'z tengdoshlari bilan birgalikda bilim olishlari mumkinligi his eta olishadi. Inklyuziv ta'limda o'quvchilar o'z tengdoshlari bilan birgalikda ta'lim olishadi ular bilan muloqotga kirishadi va ular bilan birgalikda o`yin faoliyatida bo`lishadi. Shu tariqa ular jamiyatga kirisha olishadi .

Dunyo davlatlariga nazar tashlaydigan bo`lsak ularda inklyuziv ta'limning kirib kelishi va metodlari bir biridan biroz farqli ekanligini guvohi bo`lamiz.

Amerikada 1975-yil 29-noyabrdan "Barcha nogiron bolalar uchun ta'lim" dastlabki qonun qabul qilindi. Bu qonun barcha shtatlardagi maxsus e'tiborga muhtoj yoshlar uchun ularning ta'lim olishlariga bo'lgan huquqlarini himoyalash va ularga shart sharoiyalar yaratib berish maqsadini ko'zda tutgan. Ushbu qonun qabul qilinmagunigacha maxsus e'tiborga muhtoj bolalarni o'qitish uchun sharoit mavjud emas edi.

Bu qonun nogiron bolalar uchun hamma qatori ta'lim olishlari imkoniyatini berdi.Yillar o'tib bu qonun takomillashib bordi va 1990-yil u "Nogiron shaxslar uchun ta'lim qonuni"[IDEA] bilan almashtirildi. "IDEA" nogiron yoshlar uchun alohida shart-sharoitlar yaratib berish kabi yangi va keng qamrovli bandlri borligi bilan eski qonundan tubdan farq qiladi. 2004-yilga kelib "IDEA" qo'shimcha bandlar bilan to'ldirildi.Bu qonun nafaqat maxsus ta'lim uchun balki umumiy ta'lim o'rtaсидаги то'siqlarni olib tashladi va nogironlar uchun maxsus ta'limni maktablar uchun markaziy va asosiy vazifaga aylantirdi. Mutaxassislar bu qonunni muvaffaqiyatli chiqqanligini aytishdi, chunki bu qonun qabul qilingandan so`ng nogironlarning maktabni bitirish darajasi ancha oshgan va oliy ta'lim yurtlariga o`qish darajalari ham sizilarli darajada oshgan.

Amerikada nogironlar uchun faqatgina ta'lim etibor qaratibgina qolmay balki ular uchun jamoat binolari, yo'llar, transport vositalari va boshqa jamoatchilik inshootlari nogiron shaxslar foydalana olishlari uchun maxsus vositalar va sharoitlar bilan ta'minlangan. Bular har bir jamoat aftobusida nogironlar aravachalari turushi uchun maxsus vosita va sharoitlar va ularning aftobusga chiqishi va tushishi uchun ham transport maxsus texnologiyalar bilan ta'minlangan. Shu kabi sharoitlarni binolarda va bosqa transportlarda ham ko'rish mumkin. Bu kabi sharoitlar yaratilgan imkoniyatlar nogiron shaxslarni jamiyatda barcha qatori teng huquqli yashashlarimni ta'minlash uchun hizmat qiladi.

AQSHda inklyuziv ta`lim uchun bir qancha maktablar mavjud va har bir maktab o`ziga xos metodlar bilan ishlaydi.

Brehm tayyorgarlik maktabi- AQSHda inklyuziv ta`limga ega bo`lgan eng yaxshi maktablardan biri hisoblanadi va u nogiron bolalarga qaratilgan.Maktab atiga 90 nafar o`quvchini qabul qilmoqda va ular har bir bolaning individual ehtiyojlari borligini tan oladi.Maktabda ishlovchi xodimlar soni 150 ga yaqin va ular o`quvchilarning har biri bilan individual shaklda ishlaydilar. Maktabda 9 ga yaqin talabalardan iborat guruhlarga o`rganishga kirishadilar.

Maktabda ko`plab o`quv imkoniyatlari mavjud bular raqamli kitoblar, "Kurzveyl" adabiy dasturlari va boshqalar.

Kichik Kesvik maktabi - bu maktab nogiron o'g'il bolalar uchun muljallangan maktablardan biridir. Maktab o`quvchilarga moslashish kerak ekanligini tushuntiradi chunki ularning har biri turlicha ma'lumot va tajribaga ega. Maktabda har bir bola bilan individual shaklda ishlashadi. Bu yer individual mashg'ulotlar va klinik pssixologlari mavjud bo'lgan maktabadir.

Maktab o`quvchilarning maqsadlarini belgilaydilar fikrlash uslublari ustida ishlaydilar va yangi sog'gom kurashish mexanizmini ishlab chiqishga yordam beradilar. Maktab o'g'il bolalarning sog'gom rivojlanishlarini qo'llab quvvatlash uchun barcha oilalarga individual ,guruh va oilaviy terapiyani taklif qiladi.

Shunday qilib inklyuziv ta'lim hamma uchun ya'ni sog'lom va yordamga muhtoj bo'lgan insonlar uchun. Iklyuziv ta'limning afzal jihatlari bir qancha va ular jamiyat hayotga anchagina foyda keltiradi.

## REFERENCES

1. "Nogiron shaxslar xuquqlari to'g'risida" gi DeklaratsiY.
2. O'zbekiston Respublikasining "Talim to'g'risidagi" qonuni. 2020 yil 23-sentabr. O'RQ-637 son.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 13 - oktabrdagi "Alohida ta'lim extiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida" gi PQ-4860-son Qarori.
4. Климов Е.А. Индивидуальный стиль деятельности в зависимости от типологических свойств нервной системы. К психологическим основам научной организации труда, ученича, спорта. МонографиY. М.: 2001.145 с.